

Markaziy Osiyo davlatlaridan jami 75 nafar ishtirokchidan iborat delegatsiya Janubiy Koreya Respublikasining Jeju oroliga yetib keldi

23-yanvar kuni, avval xabar qilinganidek, Markaziy Osiyo davlatlari – **O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistondan** jami **75 nafar ishtirokchidan** iborat delegatsiya Janubiy Koreya Respublikasining **Jeju oroliga** yetib keldi. Delegatsiyani Jeju xalqaro aeroportida Jeju Milliy universiteti rahbariyati samimiy kutib oldi. Shundan so‘ng, universitet mas‘ullari delegatsiya a‘zolarini **5 kunlik** maxsus dastur bilan batafsil tanishtirdi.







SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati